O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI

Ro'yxatga olindi:
№ BD-60530200

2024 yil "10" 03

"TASDIQLAYMAN"
SamDU rektori:
_____ R.I.Xalmuradov
2024 yil "__"_____

TUPROQLAR GEOGRAFIYASI FAN DASTURI

Bilim sohasi:	500 000 – Tabiiy fanlar, matematika va statistika
Ta'lim sohasi:	530 000- Fizika va tabiiy fanlar
Ta'lim yo'nalishi:	60530200 – Geografiya

Samarqand-2024

Fan/modul kodi 1-sem. TG1106	O'quv yili 2024-2025	Semestr 1	ECTS – Kreditlar 1-semestr – 6
Fan/modul turi Majburiy	**Ta'lim tili** O'zbek		**Haftadagi dars soatlari** 4

1.	**Fan nomi**	**Auditoriya mashg'ulotlari (soat)**	**Mustaqil ta'lim (soat)**	**Jami (soat)**
	Tuproqlar geografiyasi	76	104	180

2.

I. Fanning mazmuni

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga "Tuproqlar geografiyasi" fanining maqsad va vazifasi, tuproqning ko'p komponentli va ko'p fazali murakkab biokos modda ekanligi, tuproqlar tasnifi, turoqlarni o'rganish tarixi, tuproqlarning tarqalish qonuniyatlari, tuproqlardan oqilona foydalanish hamda muhofaza qilish haqida bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi - talabalarga tuproq hosil qiluvchi omillar, ularning o'zaro bog'liqligi, tuproq hosil bo'lish jarayonlarini o'rganish va dalada tuproqlarni xaritaga olish metodlari, kompleks tuproq geografik tadqiqotlarni olib borish metodikasi, tuproq morfologiyasi, mineralogik va kimyoviy tarkibi, tuproqdagi organik moddalar, tuproq unumdorligi, tuproqlarning gorizontal va vertikal mintaqalar bo'yicha tarqalish qonuniyatlari, tuproqning ekologik holatini baholash, tuproqlarning sho'rlanishi va ifloslanishi, ularni muhofaza qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish bo'yicha malaka hosil qilishdan iborat.

Fan mazmuni	
II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) **II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**	
Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)	
M1	**Tuproq haqida umumiy tushuncha. Tuproqlar geografiyasining fan sifatida shakllanishi** Kirish. Fanning maqsad va vazifasi. Tuproq haqida umumiy tushuncha. Tuproq – ochiq biokos tizim sifatida. Tuproq – landshaftning ko'zgusi. Tuproqning global funksiyasi. Tuproqshunoshlikning maqsad va vazifasi,

	tarmoqlari. Tuproqlar geografiyasining fan sifatida shakllanishi. Tuproqlarni tadqiq qilish metodlari.
M2	**Tuproqlarni tadqiq qilish tarixi** Tuproq haqidagi dastlabki ma'lumotlar. O'rta asr sharq olimlarining tuproq haqidagi bilimlari. Tuproq haqidagi ta'limotning rivojlanishi. Yevropa va rus olimlarining tuproqshunoslikka qo'shgan hissalari. Tuproqshunoslikning Dokuchayev davrida rivojlanishi. O'rta Osiyo va O'zbekistonda tuproqlarning tadqiq qilinishi.
M3	**Tuproq hosil qiluvchi tog' jinslar va omillar** Tuproq hosil qiluvchi tog' jinslar. Tog' jinslarining nurash qobig'i, nurash jarayoni, turlari. Asosiy tuproq hosil qiluvchi jinslar. Tuproq hosil qiluvchi jarayonlar. Tuproq paydo bo'lishi, rivojlanishi va unumdorligini belgilovchi asosiy omillar. Iqlim tuproq hosil bishida asosiy omil sifatida. Biologik, tuproq ona jinsining, relyefning, vaqtning va inson xo'jalik faoliyatining tuproq hosil bo'lishidagi roli. Tuproq hosil bo'lishining umumiy sxemasi.
M4	**Tuproqlarning nomenklaturasi va klassifikatsiyasi** Tuproqlarning nomenklaturasi, taksonomiyasi va diagnostikasi. Tuproqlar klassifikatsiyasi va prinsiplari. Tuproq klassifikatsiyasi bilan shug'ullangan olimlar va ularning ishlari tahlili.
M5	**Tuproq morfologiyasi** Tuproq morfologiyasi. Tuproq profili va genetik gorizontlari. Tuproq profili tuzilishining turlari. Tuproq va uning ayrim qatlamlarining qalinligi. Tuproqning tusi. Tuproq strukturasi (donadorligi) va mexanik tarkibi. Tuproq qo'shilmasi, qovushmasi. Tuproq yangi yaralmasi.
M6	**Tuproqning mineralogik va kimyoviy tarkibi. Tuproqdagi organik moddalar** Tuproq qoplami ko'p fazali tabiiy tuzilma. Tuproqning mineral qismi: birlamchi (dala shpati, slyuda, slikatlar, karbonatlar) va ikkilamchi (gidrooksid, kaltsit, soda, gips, galit, gilli minerallar) minerallar. Tuproqning kimyoviy tarkibi. Tuproqdagi organik moddalar. Tuproqning gumusli qatlami – gumosfera. Gumus hosil bo'lish nazariyasi. Gumus tarkibi. Gumusning ekologik roli.

M7	**Tuproq eritmasi, havosi, unumdorligi** Tuproqning singdiruvchanlik qobiliyati. Tuproq eritmasi - tuproqning suyuq tarkibiy qismi. Tuproqda suvning shakli va rejimi. Tuproq havosi va uning tarkibi. Tuproq unumdorligi. Tuproq unumdorligining toifalari (tabiiy, solishtirma, iqtisodiy, sun'iy va b.). Tuproq unumdorligini qiyosiy baholash – tuproq bonitirovkasi.
M8	**Tuproqlarning hududiy tarqalish qonuniyatlari** Tuproqlarning tarqalishi. Dunyoning Yer resurslari. Tekislik va tog'li o'lkalar tuproqlari shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, ularning tavsifi. Tuproq qoplamining tabaqalanish (differensiatsiya) omillari. Har xil turdagi tuproqlarning tarqalish qonuniyatlari: gorizontal zonallik, vertikal zonallik (balandlik mintaqalanishi), fatsiallik (provinsiallik), tuproqlarning o'xshash topografik qatorlari, intrazonallik.
M9	**Tuproq geografik rayonlashtirish** Tuproq geografik rayonlashtirish. Tuproq geografik rayonlashtirishning taksonomik birliklar tizimi. Dunyoning tuproq bioiqlim mintaqalari.
M10	**Qutbiy (sovuq) va boreal (mo'tadil-sovuq) tuproq bioiqlim mintaqalari** Tuproq qoplamining kenglik bo'yicha tuproq-bioiqlimiy mintaqalarga ajartilishi. Qutbiy (sovuq), boreal (mo'tadil-sovuq) va subboreal tuproq bioiqlim mintaqalari tuproqlari. Arktika va tundra tuproqlarining ekologik-geografik tavsifi. Podzol va chimli podzol, nordon qo'ng'ir tipli tuproqlarining ekologik-geografik tavsifi.
M11	**Subboreal tuproq bioiqlim mintaqasi** Subboreal tuproq bioiqlim mintaqalari tuproqlari. Subboreal tuproq bioiqlim mintaqasi tuproqlarining ekologik-geografik tavsifi. Subboreal mintaqada - o'rmon, dasht, cho'l va chala cho'l oblastlari ajralib turadi:
M12	**Subtropik tuproq bioiqlim mintaqasi** Subtropik sernam-o'rmon, subtropik kserofit-o'rmon va buta-dasht subtropik chala cho'l va cho'llar oblastlari tuproqlari. Subtropik tuproq bioiqlim mintaqalari tuproqlarining ekologik-geografik tavsifi.
M13	**Tropik tuproq bioiqlim mintaqasi** Tropik mintaqa tuproqlarini hosil qiluvchi asosiy jarayonlar. Tropik nam-o'rmon, tropik savannalar va kserofit-o'rmon, tropik chala cho'l va cho'l

	oblastlari tuproqlari. Tropik tuproq bioiqlim mintaqalari tuproqlarining ekologik-geografik tavsifi.
M14	**Tog‘ (balandlik mintaqasi) va qayir tuproqlari** Tog‘li hududlarda tuproq hosil bo‘lishining o‘ziga xos xususiyatlari. Tog‘li hudud tuproqlari. Cho‘l, adir, tog‘ va yaylov mintaqasi tuproqlari. Tog‘ tuproqlaridan foydalanish. Qayirlarda allyuvial tuproqlar: chimli allyuvial, o‘tloq allyuvial va botqoq allyuvial tuproqlar. Qayirlardagi tuproqlardan foydalanish.
M15	**Tuproqlarni tadqiq qilish va tuproq kartografiyasi** Tuproqlarni tadqiq qilish metodlari va metodikasi. Tuproqlarni tadqiq qilish bosqichlari. Tuproqlarni dalada tadqiq qilish. Tuproq kesmasi va u uchun joy tanlash. Tuproq namunalarini olish. Tuproq monolitlarini olish. Tuproq kartografiyasi – genetik tuproqshunoslikning tuproq xaritalarini tuzish va foydalanish usullarini o‘rganadigan bo‘limi. Tuproq xaritalari: Umumiy va maxsus tuproq xaritalari.
M16	**Tuproqlarning sho‘rlanishi va melioratsiyasi** Sho‘rlangan tuproqlar. Tuproqning sho‘rlanishiga olib keluvchi omillar. Birlamchi va ikkilamchi sho‘rlanish. Sho‘rlangan tuproqlarning dunyo bo‘yicha tarqalishi. Sho‘rlangan tuproqlarning O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha tarqalishi. Tuproqlarning sho‘rlanishi va uning oqibatlari. Tuproqlar sho‘rlanishining oldini olish yo‘llari. Tuproq melioratsiyasi.
M17	**Tuproqlarning ifloslanishi** Tuproq buzilishi va ifloslanishining sabablari va manbalari. Tuproqlarning kimyoviy ifloslanishi. Sanoat va qishloq xo‘jaligi natijasida tuproqlarning ifloslanishi. Tuproqqa ta’sir etish natijasida yuzaga keladigan salbiy oqibatlar. Tuproq eroziyasi va uni oldini olish tadbirlari.
III. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar: Amaliy (A) Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.	
A1	Tuproqlar geografiyasining geografik fanlar tizimida tutgan o‘rni.
A2	Tuproqlarni tadqiq etishga hissa qo‘shgan olimlar haqida prezentatsiya tayyorlash.
A3	Tuproqlarni tadqiq etishga hissa qo‘shgan olimlar haqida tayyorlangan prezentatsiyani himoya qilish.
A4	Tuproq hosil qiluvchi omillarni tahlil qilish.
A5	Tuproq morfologiyasini tahlil qilish.

A6	Tuproqdagi organik moddalar.
A7	Tuproq unumdorligi va uni oshirish usullari.
A8	Berilgan mavzu asosida referat tayyorlash. burchaklarini aniqlash.
A9	Berilgan mavzu asosida tayyorlangan referatga prezenrasiya tayyorlash.
A10	Berilgan mavzu asosida tayyorlangan referatga prezentatsiya tayyorlash
A11	Dunyo tuproqlari xaritasi asosida tuproqlarning tarqalish qonuniyatlarini aniqlash.
A12	Dunyo tuproqlari xaritasini ishlash.
A13	Dunyo tuproqlari xaritasini mazmunini aytib berish.
A14	Tog‘ (balandlik mintaqasi) va qayir tuproqlari.
A15	Tuproqlarni tadqiq qilish va tuproq kartografiyasi.
A16	Tuproqlarning sho‘rlanishi va melioratsiyasi.
A17	O‘z o‘lkasi tuproqlarini ifloslantiruvchi omillarni aniqlash.
A18	O‘z o‘lkasi tuproqlarini muhofaza qilish masalalarini o‘rganish
A19	O‘rta Osiyo tuproqlari geografiyasi
A20	Tuproqlarning ahamiyati va uni muhofaza qilish.
A21	Tuproqlar profilini tuzish

IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

“Tuproqlar geografiyasi” fani bo‘yicha mustaqil ta’lim va ishlarning kalendar tematik rejasi

№	Mustaqil ta’lim mavzulari
1.	Tuproqlar geografiyasining shakllanish tarixi.
2.	O‘zbekistonda tuproqshunoslik fani va uning yo‘nalishlari.
3.	Nurash jarayoni va tuproq.
4.	Tuproq morfologik belgilarining agronomik xususiyatlari.
5.	Tuproqlar bonitirovkasi tarixi.
6.	Tuproqlar nomenklaturasi.
7.	Tuproq geografik rayonlashtirish tajribalari.
8.	Tog‘ tuproqlaridan qishloq xo‘jaligida foydalanish.
9.	Dunyo tuproq kartografiyasining rivojlanish tarixi.
10.	Tuproqlarni tadqiq qilish bosqichlari.

“Tuproqlar geografiyasi” Geografiyada qo‘llaniladigan topografik, mavzuli hamda geografik kartalarni o‘rganish hamda ular bilan ishlashni, koordinatalar sistemalari, kartografik proeksiyalar, masshtablar va topografik kartalar nomenklaturasi, joyda topografik – geodezik o‘lchashlarni bajarish, topografik plan va kartalarni tuzish, kompyuter texnologiyalaridan foydalanish prinsiplarini o‘rganish, axborotlarni to‘plash qayta ishlash va taxlil qilishning zamonaviy usullari haqida bilimlar berishdan iborat. Fan

va ta’lim integratsiyasi mazmun mohiyatidan kelib chiqqan holda innovasiyalarni ta’lim tizimiga keng jalb etish, zamonaviy axborot-kommunikasiya tizimidan keng foydalanish.

3.	**V. Fan o’qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba: • tuproq hosil qiluvchi omillar, ularning o‘zaro bog‘liqligi, tuproq hosil bo‘lish jarayonlari, dalada tuproqlarni xaritaga olish metodlari, kompleks tuproq geografik tadqiqotlarni olib borish metodikasi, tuproq morfologiyasi, mineralogik va kimyoviy tarkibi, tuproqdagi organik moddalar, tuproq unumdorligi, tuproqlarning gorizontal va vertikal mintaqalar bo‘yicha tarqalish qonuniyatlari, tuproqning ekologik holatini baholash, tuproqlarning sho‘rlanishi va ifloslanishi, ularni muhofaza qilish haqida ***tasavvur va bilimga ega bo‘lishi***; • dalada tuproqlarni xaritaga olish metodlari, kompleks tuproq-geografik tadqiqotlarni olib borish metodikasi, tuproqning ekologik holatini baholash, tuproqlarning sho‘rlanishi va ifloslanishi, tuproqlarni muhofaza qilish chora-tadbirlarini ***bilishi va ulardan foydalana olishi;*** • talaba tuproqning ekologik holatini baholash, tuproqlarning sho‘rlanishi va ifloslanishi, tuproqlarni muhofaza qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish bo‘yicha xulosalar chiqara olish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.***
4.	**VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:** • ma’ruzalar; • amaliy mashg‘ulotlar; • interfaol metodlar; • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘liq o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy nazorat shakllari, hamda mustaqil ta’limda berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish

6. Asosiy adabiyotlar:

1. Ходжиматов А.Н., Холмуродов Ш.А. Тупроқлар географияси Т.: Фан ва технологиялар. 2018.
2. Тошхўжайев Р Тупроқшунослик (лаборатория машғулотлари).Т.: ТДПУ, 2008.

3. Абдрахмонов Т., Жаббаров З.А. Тупроқларни кимёвий ифлосланиши ва мухофаза қилиш тадбирлари. Тошкент. “Университет” 2007. 115 б.
4. Турсунов Л. Табиий ва техноген бузилган тупроқлар генезиси, географияси ва рекултиватсияси. Университет, Тошкент, 2008.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Abdullayev S.A., Nomozov X.Q. Tuproq meliorasiyasi va gidrologiyasi. Darslik. – T.: “Fan vatexnologiya”, 2018.
2. Soils: Genesis and Geomorphology. Textbook. – Cambridge University press. 2005.
3. Nomozov X.Q., Turdimetov Sh. M. O‘zbekiston tuproqlari va ularning evolutsiyasi. Darslik. – T.: “Fan vatexnologiya”, 2016.
4. Xodjimatov A., Xolmurodov Sh. Tuproqlar geografiyasi. Darslik. – T.: “Fan va texnologiya”, 2018.
5. Абдрахмонов Т., Жаббаров З.А. Тупроқларни кимёвий ифлосланиши ва муҳофаза қилиш тадбирлари. Ўқув қўланма. – Т.: “Университет” 2007.
6. Баҳодиров М., Расулов А. Тупроқшунослик. Дарслик. – Т.: “Ўқитувчи”, 1975.
7. Белобров В.П., Замотаев И.В., Овечкин С.В. География почв с основами почвоведения. Учебное пособие. – М.: “Академия”, 2004. – 352 с.
8. Добровольский Г.В. География почв с основами почвоведения. Учебник. – М.: “ВЛАДОС”, 2001.
9. Добровольский Г.В., Урусевская И.С. География почв. Учебник. – М.: МГУ, 2004.
10. Мирзажонов К., Назаров М., Зокирова Ш., Юлдашев Г. Тупроқ муҳофазаси. Ўқув қўлланма. – Т.: “Фан ва технология”, 2004.
11. Митрополова Л.В. Картография почв. Учебное пособие. – Уссурийск, ФГБОУ ВО Приморская ГСХА, 2019.
12. Турсунов Л. Табиий ва техноген бузилган тупроқлар генезиси, географияси ва рекультивацияси. Услубий кўрсатма. – Т.: “Университет”, 2008.
13. Федоров А.С., Горячкин С. В., Касаткина Г.А., Федорова Н.Н. География почв: учеб. пособие. – СПб.: Изд-во С.-Петерб, ун-та, 2013.

Axborot manbalari

14. https://soil.uz/uz/
15. http://www.soil.msu.ru/
http://www.photosoil.ru/

7.	Fan dasturi Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashining 2024 yil “24” avgustdagi 1 -son bayonnomasi bilan ma’qullangan**.**

8.	**Fan/modul uchun mas'ullar**: Xursanov D.B. – SamDU, "Geografiya va tabiiy resurslar" kafedrasi dotsent, g.f.f.d. PhD. Valiyeva Sh.I.– SamDU, "Geografiya va tabiiy resurslar" kafedrasi o'qituvchisi PhD.

9.	**Taqrizchilar:** Nazarov X.T.- SamDU, "Geografiya va tabiiy resurslar" kafedrasi dotsenti (ichki) Ibroimov Sh.I. - Chirchiq Davlat Pedagogika UniversitetiGeografiya kafedrasi dotesnti (tashqi)

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida
Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:
Rais – Xaydarov S.A.

Kafedra mudiri: **B.B.Eshquvvatov**

Fakultet dekani: **S.B.Abbasov**

Sh. Rashidov nomidagi SamDU O'quv ishlari bo'yicha 1-prorektor: **A.S. Soleyev**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Geografiya va ekologiya fakulteti "Geografiya va tabiiy resurslar" kafedrasi dotsenti, D.B.Xursanov tomonidan 60530200 – Geografiya ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabalari uchun tuzilgan "Tuproqlar geografiyasi" fanidan o`quv dasturlarga

TAQRIZ

Ushbu o`quv fan dasturi 2024–yil tasdiqlangan Geografiya ta'lim yo'nalishi uchun ishlab chiqilgan malaka talablari asos qilib olingan. "Tuproqlar geografiyasi" o'quv kursi o'quv jarayonida cho'lllanishning global muammo ekanligi, Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi ilmiy-texnika taraqqiyoti yanada kuchaydi va o'simliklardan olinadigan hosilni oshirish yo'llari belgilab berilmoqda. Buning uchun esa biz tuproqlarni yaxshi o'rgangan bo'lishimiz kerak. Tuproqlar geografiyasini o'rganishda boshqa fanlar ayniqsa tabiiy fanlar bilan chambarchas bog'liqdir. Avvalo tuproqlar geografiyasini o'qitish geologiya, umumiy yer bilimi fanlaridan olingan nazariy va amaliy bilimlarga asoslangan.

"Tuproqlar geografiyasi" fani boshqa fanlar bilan bog'liq bo'lgan ta'lim-tarbiya jarayonlari sistemasi haqidagi fandir. O'quvchilarga fan asoslarini o'rgatish, ularning geografiya ta'limiga doir bilimlarini tartibga solish va amaliy mashg'ulotlar olib borish asosida ularda mexnat ko'nikmalarini hosil qilish jarayonlarini o'rganish bilan shug'ullanadi.

Fan va ta'lim integratsiyasi mazmun mohiyatidan kelib chiqqan holda innovatsiyalarni ta'lim tizimiga keng jalb etish, zamonaviy axborot-kommunikasiya tizimidan keng foydalanish. Shuningdek, o'quv fanining maqsadi va vazifalari, fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikmasiga qo'yiladigan talablar keltirilgan. "Tuproqlar geografiyasi" fani bo`yicha har bir mavzuga annotatsiya, fanning mazmuni va vazifasi, amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular, fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar), Ta'lim texnologiyalari va metodlari hamda kredit miqdori, asosiy va qo`shimcha adabiyotlar ro`yxati berilgan. Dasturni tuzishda geografiya ta`lim yo`nalishi uchun ishlab chiqilgan malaka talablariga mos ravishda ishlab chiqilgan. "Tuproqlar geografiyasi" o'quv dasturi OTM uchun 1-kursi me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanib, mazkur fan bo'yicha ishchi dasturni ishlab chiqish va rasmiylashtirishda namunaviy o`quv dastur sifatida qo'llaniladi hamda tegishli fan bo'yicha ta'lim-tarbiya jaryonini tashkil etish va o'tkazilishiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi. "Geografiya va tabiiy resurslar" kafedrasi dotsenti, D.B.Xursanov tomonidan tuzilgan ushbu fan dasturi belgilangan tartibga mos keladi va undan o'quv jarayoniga foydalanish mumkin.

SamDU Geografiya va tabiiy resurslar kafedrasi dotsenti: **X.T.Nazarov**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Geografiya va ekologiya fakulteti "Geografiya va tabiiy resurslar" kafedrasi dotsenti, D.B.Xursanov tomonidan 60530200 – Geografiya ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabalari uchun tuzilgan "Tuproqlar geografiyasi" fanidan o`quv dasturlarga

TAQRIZ

Ushbu o`quv fan dasturi 2024–yil tasdiqlangan Geografiya ta'lim yo'nalishi uchun ishlab chiqilgan malaka talablari asos qilib olingan. "Tuproqlar geografiyasi" o'quv kursi o'quv jarayonida cho'lllanishning global muammo ekanligi, Tuproqlar geografiyasi fanining predmeti va obe'kti, tuproqlarning paydo bo'lish qonuniyatlari, nurash protsesi , tuproqlarning zonal va regional tarqalishi, ularning unumdorligi, melioratsiya,sho'rlanish jarayonlari haqida chuqur bilim va ko'nikmalar beradi.

Fan va ta'lim integratsiyasi mazmun mohiyatidan kelib chiqqan holda innovatsiyalarni ta'lim tizimiga keng jalb etish, zamonaviy axborot-kommunikasiya tizimidan keng foydalanish. Shuningdek, o'quv fanining maqsadi va vazifalari, fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikmasiga qo'yiladigan talablar keltirilgan. "Tuproqlar geografiyasi" fani bo`yicha har bir mavzuga annotatsiya, fanning mazmuni va vazifasi, amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular, fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar), Ta'lim texnologiyalari va metodlari hamda kredit miqdori, asosiy va qo`shimcha adabiyotlar ro`yxati berilgan. Dasturni tuzishda geografiya ta`lim yo`nalishi uchun ishlab chiqilgan malaka talablariga mos ravishda ishlab chiqilgan. "Tuproqlar geografiyasi" o'quv dasturi OTM uchun 1-kursi me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanib, mazkur fan bo'yicha ishchi dasturni ishlab chiqish va rasmiylashtirishda namunaviy o`quv dastur sifatida qo'llaniladi hamda tegishli fan bo'yicha ta'lim-tarbiya jaryonini tashkil etish va o'tkazilishiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi. "Geografiya va tabiiy resurslar" kafedrasi dotsenti, D.B.Xursanov tomonidan tuzilgan ushbu fan dasturi belgilangan tartibga mos keladi va undan o'quv jarayoniga foydalanish mumkin.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
Geografiya kafedrasi,
dots. v/b., g.f.f.d., (PhD) **Ibroimov Sh.I.**

Ibroimov imzosini tasdiqlayman
CHDPU XB inspektori
20